O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA SAMARADORLIK INDEKSI KO‘RSATKICHLARI VA UNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti
mustaqil tatqiqotchisi
Nazirova Iroda Nigmatjon qizi
Irodaxoon26@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu bo‘limda O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiyot rivojlanish darajasini baholashda qo‘llaniladigan asosiy xalqaro va tarkibiy indeks ko‘rsatkichlari — Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi (SDG Index), Gini koeffitsienti, Inson taraqqiyoti indeksi (HDI), gender tengligi indekslari va Elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) — tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakat so‘nggi yillarda ushbu ko‘rsatkichlarning aksariyati bo‘yicha ijobiy dinamikaga erishgan bo‘lsa-da, gender tengsizligi va hududiy tafovutlar inklyuziv o‘sish salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘siq bo‘lib qolmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarning milliy iqtisodiyotga ta’siri inson kapitali sifati, ichki talab barqarorligi va institutsional samaradorlik kanallari orqali namoyon bo‘lishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv iqtisodiyot, samaradorlik indeksi, Gini koeffitsienti, Inson taraqqiyoti indeksi, gender tenglik, Barqaror rivojlanish maqsadlari, milliy iqtisodiyot.

O‘zbekiston sharoitida inklyuziv iqtisodiyotni baholashning metodologik asosi 2023 yilgi konstitutsiyaviy islohotlar natijasida davlatning “ijtimoiy davlat” sifatida belgilanishi, inson qadri, ijtimoiy adolat, imkoniyatlar tengligi va farovonlikni ta’minlashga qaratilgan institutsional majburiyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu ma’noda inklyuziv iqtisodiyot samaradorligi indeksi makroiqtisodiy o‘sishning ijtimoiy natijadorligini, ya’ni o‘sishning aholi daromadlari, kambag‘allikni qisqartirish, mehnat bozoriga integratsiya, ijtimoiy

xizmatlar qamrovi, raqamli va moliyaviy inklyuziya orqali qanday transformatsiyalanayotganini ifodalovchi integral ko‘rsatkich sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ham barqaror va inklyuziv rivojlanish, aholi farovonligini ta’minlash, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, har bir shaxs salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

Metodologik jihatdan O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiyot samaradorligini quyidagi integral yondashuv asosida baholash mumkin:

- iqtisodiy o‘sish va aholi jon boshiga YAIM dinamikasi;
- kambag‘allik va daromadlar tengsizligi;
- mehnat bozori samaradorligi va ishsizlik darajasi;
- ijtimoiy xarajatlar va ijtimoiy himoya qamrovi;
- raqamli inklyuziya va internetdan foydalanish;
- inson kapitali, ta’lim, sog‘liqni saqlash va inson rivojlanishi indeksi ko‘rsatkichlarini anglatadi.

Bunday yondashuv ilmiy tadqiqotimizda inklyuziv iqtisodiyotni faqatgina iqtisodiy o‘sishning miqdoriy natijasi emas, balki uning ijtimoiy taqsimlanish samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkoniyatini beradi.

2010-2025 yillar kesimida O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiyot shakllanishini shartli ravishda uch bosqichda baholash mumkin. Birinchi bosqich 2010-2016 yillar yuqori iqtisodiy o‘sish saqlangan, aholi daromadlari, ish haqi va pensiyalar bosqichma-bosqich oshgan, biroq iqtisodiy o‘sishning tarkibiy-institutsional inklyuzivligi hali cheklangan davr hisoblanadi. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari portali ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-2020 yillarda aholi jon boshiga daromadlar 1,7 mln so‘mdan 11,7 mln so‘mgacha o‘sgan, qulay uy-joy sharoitida yashovchi aholi ulushi esa 2010 yildagi 9,2 foizdan 2020 yilda 49,8 foizgacha oshgan. Bu holat iqtisodiy o‘sishning ma’lum darajada ijtimoiy infratuzilma va turmush darajasiga transmissiya qilinganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bosqich 2017-2020 yillar iqtisodiyotni liberallashtirish, valyuta

bozorini erkinlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va davlatning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirishga qaratilgan islohotlar bilan tavsiflanadi. Biroq 2020 yilda pandemiya ta’sirida inklyuziv iqtisodiyot ko‘rsatkichlarida ma’lum salbiy determinatsiyalar yuzaga keldi: iqtisodiy o‘sish 1,6 foizgacha pasaydi, ishsizlik darajasi 10,5 foizgacha ko‘tarildi, aholining ijtimoiy himoyaga ehtiyoji keskin ortdi. Milliy statistika ma’lumotlarida 2010 yilda ishsizlik darajasi 5,4 foiz bo‘lgani, 2020 yilda esa 10,5 foizga yetgani qayd etilgan; bu mehnat bozorida tashqi shoklarga nisbatan institutsional moslashuvchanlik yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Uchinchi bosqich 2021-2025 yillar kambag‘allikni qisqartirish, mahallabay ishlash, “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, ijtimoiy reyestr, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, kasbga o‘qitish va raqamli xizmatlarni kengaytirish orqali inklyuziv o‘sishni institutsionallashtirish davri sifatida baholanadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 2021 yilda 17,0 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda 14,1 foizga, 2023 yilda 11,0 foizga, 2024 yilda 8,9 foizga, 2025 yilda esa 5,8 foizgacha pasaygan. Ushbu dinamika iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi kuchayganini, biroq hududlar kesimida kambag‘allik darajasidagi farqlar hali ham saqlanib qolayotganini anglatadi.



1-rasm. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi dinamikasi

Inklyuziv iqtisodiyot samaradorligini baholashda aholi jon boshiga YAIMning o‘sish sur’ati muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Milliy statistika

qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda aholi jon boshiga YAIM 2021 yilda 24 664,7 ming so‘mni, 2022 yilda 29 226,7 ming so‘mni, 2023 yilda 34 653,2 ming so‘mni, 2024 yilda 41 306,7 ming so‘mni, 2025 yilda esa 48 816,4 ming so‘mni tashkil etgan. Shu bilan birga, 2025 yilda aholi jon boshiga YAIM real hisobda 5,7 foizga o‘sgan. Bu ko‘rsatkich iqtisodiy faollikning aholi soniga nisbatan ham kengayib borayotganini ko‘rsatadi, ammo uning inklyuziv mazmuni ushbu o‘sishdan qaysi ijtimoiy guruhlar va hududlar qanday darajada bahramand bo‘layotgani bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sustainable Development Solutions Network (SDSN). Sustainable Development Report 2023. – New York: SDSN, 2023.
2. World Bank. Uzbekistan – Country Gender Assessment 2024. – Washington DC: World Bank, 2024.
3. UNDP. Human Development Report: Uzbekistan Country Profile. – New York: UNDP, 2023.
4. UN Department of Economic and Social Affairs. E-Government Survey 2024. – New York: United Nations, 2024.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari. – Toshkent: 2024.
6. Mustafoqulov Sh.I., Isayev Q. Inklyuziv iqtisodiyot: zarurat, tendensiya va istiqbol. – Toshkent, 2023.